

BILIMLAR IQTISODIYOTIDA KOLLABORATIV MADANIYATNING NAZARIY PEDAGOGIK VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI TAHLILI

Badalova Gulra'no Mirolimjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

gulirano15@list.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21913058>

Annotatsiya. Maqolada kollaborativ madaniyatning mazmuni, pedagogik mohiyati va bilimlar iqtisodiyotidagi funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Kollaboratsiya hamda kooperatsiya tushunchalarining farqlari aniqlanib, ularning maqsadi, boshqaruv mexanizmlari, bilim almashinuvi, innovatsion salohiyati va natijaviy xususiyatlari qiyoslanadi. Kollaborativ faoliyat bilimni birgalikda yaratishning ijtimoiy mexanizmi sifatida asoslanib, talabalarning kommunikativ, refleksiv va ijodiy kompetensiyalari hamda hamkorlikni rivojlantirishi yoritiladi.

Kalit soʻzlar. Kollaborativ madaniyat, kollaboratsiya, kooperatsiya, bilimlar iqtisodiyoti, innovatsion sinergiya, pedagogik hamkorlik.

Аннотация. В статье анализируются содержание коллаборативной культуры, ее педагогическая сущность и функциональное значение в экономике знаний. Раскрываются различия между коллаборацией и кооперацией, сопоставляются их цели, механизмы управления, обмен знаниями, инновационный потенциал и результаты. Коллаборативная деятельность обосновывается как социальный механизм совместного конструирования знания, развивающий коммуникативные, рефлексивные и творческие компетенции и сотрудничество студентов.

Ключевые слова. Коллаборативная культура, коллаборация, кооперация, экономика знаний, инновационная синергия, педагогическое взаимодействие.

Abstract. The article analyzes collaborative culture, its pedagogical essence and significance within the knowledge economy. It distinguishes collaboration from cooperation by comparing their goals, management mechanisms, knowledge exchange, innovative potential, and outcomes. Collaborative activity is substantiated as a social mechanism for constructing knowledge and developing students' communicative, reflective, and creative competencies.

Keywords. Collaborative culture, collaboration, cooperation, knowledge economy, innovative synergy, pedagogical interaction.

Zamonaviy globallashuv, raqamli transformatsiya va bilim iqtisodiyoti sharoitida “kollaborativ” tushunchasi nafaqat ta’limda, balki biznes, ilm-fan va ijtimoiy tizimlarda ham markaziy oʻrin egallamoqda. Kollaborativ faoliyat inson faoliyatining individual modelidan jamoaviy, hamkorlikka asoslangan modelga oʻtishini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, “kollaborativ madaniyat” esa ushbu hamkorlikning ijtimoiy-psixologik va institutsional asoslarini anglatadi.

“Kollaborativ” tushunchasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy, pedagogik, tashkiliy jihatdan talqin qilinadi. “Kollaborativ” atamasi ingliz tilidagi *collaboration* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, umumiy maqsadga erishish uchun ikki yoki undan ortiq subyektlarning oʻzaro kelishuv, muloqot va faol hamkorlik asosida ish olib borishini anglatadi. Kollaborativlik oddiy yordam yoki vazifalarni boʻlib bajarish holatidan farq qiladi, chunki bunda ishtirokchilar birgalikda ma’no yaratadi, muammoni birgalikda tushunadi va yakuniy natijani ham hamkorlikda shakllantiradi. P. Dillenbourg kollaborativ oʻrganish haqidagi mashhur tadqiqotida mazkur tushuncha yagona va qat’iy shakldagi definitsiyaga ega emasligini, balki u vaziyat, guruh tarkibi, faoliyat turi va oʻzaro ta’sir darajasiga qarab turlicha talqin qilinishini koʻrsatadi. Olimning fikricha, kollaborativlikning markazida talabalar oʻrtasidagi nisbatan teng maqomli, birgalikdagi intellektual faoliyat turadi [1. 1999: B.9]. Bu yerda asosiy urgʻu tayyor bilimni uzatishga emas, balki bilimni birga qurishga qaratiladi. Shu sababli kollaborativlikni faqat tashkiliy shakl emas, balki bilishning oʻziga xos ijtimoiy mexanizmi sifatida baholash mumkin.

J. Roschelle va S. Teasley kollaboratsiyani yanada aniqroq izohlab, uni “muammoni birgalikda hal etish jarayonida umumiy tushuncha maydonini yaratish” sifatida tavsiflaydi. Kollaborativ faoliyatning mohiyati shundaki, talabalar faqat vazifani boʻlib olmaydi, balki umumiy muammo makonini yaratadi, maqsadlarni kelishadi, tushunchalarni muvofiqlashtiradi va qarorlarni birga ishlab chiqadi. Bu esa kollaborativlikni kooperatsiyadan ajratib turadi. Kooperatsiyada vazifalar koʻpincha taqsimlanadi va keyin birlashtiriladi, kollaboratsiyada esa bilimning oʻzi hamkorlik jarayonida yuzaga keladi [2. 1995: B.69].

Quyida „kollaboratsiya“ va „kooperatsiya“ o‘rtasidagi asosiy farqlar ilmiy yondashuv asosida jadval shaklida tahlil qilinadi. Mazkur jadval rus olimi O. V. Inshakov tadqiqotlari asosida shakllantirildi [3. 2013: B.38]. Olim „kollaboratsiya“ tushunchasini bilimlar iqtisodiyotiga mos bo‘lgan, ishtirokchilar o‘rtasida bilim almashuvi, o‘zaro o‘rganish va yangi intellektual mahsulot yaratishga qaratilgan kooperatsiyaning maxsus shakli deb izohlaydi. Olimga ko‘ra, kollaboratsiya oddiy birgalikdagi ish emas, balki innovatsion natija, ishonch va paritetga tayangan chuqur integratsion hamkorlikdir.

1.1 jadval. „Kooperatsiya“ va „kollaboratsiya“ tushunchalarining qiyosiy tahlili

Mezon	Kooperatsiya	Kollaboratsiya
Mohiyati	Faoliyat yoki resurslarni muayyan vazifa uchun taqsimlab, birgalikda ishlash shakli.	Bilim, tajriba va kreativ salohiyatni birlashtirib, yangi intellektual qiymat yaratishga yo‘naltirilgan murakkab hamkorlik shakli.
Asosiy maqsad	Vazifani samarali bajarish, faoliyat bosqichlarini kamaytirish, jarayonni muvofiqlashtirish.	Innovatsiya yaratish, yangi g‘oya yoki yangi bilim hosil qilish, kumulyativ samaradorlikka erishish.
Natija turi	Oldindan belgilangan, funksional va amaliy natija.	Yangi sifat darajasidagi, oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan ijodiy natija.
Talabalar o‘rtasidagi aloqa	Rollar nisbatan aniq bo‘lingan, har kim o‘z funksiyasini bajaradi.	Rollar nisbatan moslashuvchan, talabalar bir-birining „bilim maydoniga kiradi“ va birgalikda qaror ishlab chiqadi.
Bilim almashuvi darajasi	Zarur minimum darajada axborot almashinuvi.	Bilim, tajriba, kompetensiya va g‘oyalar almashinuvi markaziy o‘rinni egallaydi.
Faoliyatni boshqarish	Ko‘proq koordinatsiya va nazoratga asoslanadi.	O‘zaro ishonch, kelishuvga erishish, teng huquqli hamkorlik va faoliyatni birgalikda rejalashtirish tamoyillariga tayangan holda tashkil etiladi hamda talabalarning umumiy mas‘uliyatini kuchaytiradi.
Innovatsion salohiyat	O‘rtacha; mavjud tizimni yaxshilashi mumkin.	Yuqori; yangi texnologiya, model yoki mahsulot tug‘dirishi ehtimoli kuchli.
Ishonch omili	Muhim, lekin har doim ham markaziy emas.	Hal qiluvchi omil; ishonchsiz kollaboratsiya samarali ishlamaydi.
Davomiylik	Qisqa yoki o‘rta muddatli bo‘lishi mumkin.	Odatda chuqurroq, strategik va ko‘proq uzoq muddatli bo‘ladi.
Qo‘llanish sohasi	Ishlab chiqarish, logistika, taqsimot, xizmat ko‘rsatish.	Ilm-fan, ta‘lim, startaplar, kreativ industriya, yuqori texnologiyalar.

Kooperatsiya va kollaboratsiya bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ular aynan bir xil faoliyat emas. Kooperatsiya asosan faoliyatni muvofiqlashtirish va vazifalarni taqsimlash orqali samaradorlikka erishishni ko‘zlaydi. Bunda natija ko‘pincha oldindan aniqlangan bo‘ladi. Kollaboratsiya esa kooperatsiyaning yanada rivojlangan, bilimga tayangan shakli bo‘lib, unda ishtirokchilar faqat resurs yoki mehnatni emas, balki o‘z kompetensiyasi, tajribasi va ijodiy salohiyatini ham birlashtiradi. Shu sababli kollaboratsiyada “birga ishlash” emas, balki “birga yaratish” ustuvor hisoblanadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan hamkorlik operatsion samaradorlik kategoriyasiga kirs, kollaboratsiya innovatsion sinergiya kategoriyasiga mansubdir. Kooperatsiyada rollar qat‘iyroq, vertikal boshqaruv kuchliroq bo‘ladi. Kollaboratsiyada esa gorizontaal aloqalar, o‘zaro ishonch va tenglik muhim hisoblanadi. Kollaboratsiya aynan bilimlar iqtisodiyoti sharoitida kuchayadi, chunki bunday muhitda ustunlik oddiy ishlab chiqarishdan emas, balki yangi bilim va yangi intellektual mahsulot yaratishdan kelib chiqadi. Kooperatsiya vazifani birga bajarish, kollaboratsiya esa yangi qiymatni birga yaratish modelidir. Amaliy nuqtai nazaridan standart jarayonlar uchun kooperatsiya yetarli bo‘lsa, noaniq, murakkab va innovatsion muammolarni hal qilishda kollaboratsiya samaraliroq hisoblanadi.

Bilimlar iqtisodiyoti iqtisodiy rivojlanishda asosiy resurs sifatida moddiy boyliklar emas, balki bilim, axborot, innovatsiya va inson kapitali hal qiluvchi o‘rin tutadigan iqtisodiy tizimdir. Unda qiymat yaratish jarayoni ko‘proq yangi bilimlarni ishlab chiqish, ularni tarqatish, tijoratlashtirish va amaliyotga joriy etish bilan bog‘lanadi. Shu bois bilimlar iqtisodiyotida ilm-fan, ta‘lim, raqamli texnologiyalar, intellektual

mehnat va innovatsion infratuzilma yetakchi omilga aylanadi. A.B. Kuzyura o'z maqolasida mazkur tushuncha bir necha muhim belgilar bilan tavsiflanishini keltirib o'tadi: bilimning strategik resursga aylanishi; inson kapitalining ustuvorligi; innovatsion faoliyatning iqtisodiy o'sish manbai bo'lishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanishi; ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi[4.2022:B.95]. Shu ma'noda bilimlar iqtisodiyati postindustrial jamiyatning iqtisodiy modeli sifatida ham talqin qilinadi. “Bilimlar iqtisodiyati” tushunchasi aynan jamiyat va xo'jalik rivojida bilimning yetakchi ishlab chiqaruvchi kuchga aylanganini ifodalash uchun qo'llanadi. Bu tushuncha bilimlarning ilmiy yutuqlarga va mutlaqo yangi yoki tubdan takomillashtirilgan mahsulot hamda texnologiyalarga aylanishi bilan bog'lanadi.

Kollaborativ madaniyat bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ta'lim subyektlarining teng huquqli muloqoti, o'zaro ishonchi, umumiy mas'uliyati va intellektual resurslarini birlashtirishga asoslangan pedagogik hodisa hisoblanadi. Uning kooperatsiyadan asosiy farqi vazifalarni taqsimlash bilan cheklanmay, yangi bilim, innovatsion g'oya va intellektual mahsulotni birgalikda yaratishga yo'naltirilganidadir. Kollaborativ faoliyat davomida ishtirokchilar umumiy muammo maydonini shakllantiradi, qarorlarni muvofiqlashtiradi, tajriba va kompetensiyalarini o'zaro boyitadi. Shu sababli mazkur madaniyatni rivojlantirish talabalarning kommunikativ, refleksiv, kreativ va jamoaviy kompetensiyalarini takomillashtiradi. U murakkab pedagogik muammolarni hal qilish, innovatsion sinergiyani ta'minlash va ta'lim samaradorligini oshirishning muhim institutsional omili bo'lib xizmat qiladi. Natijada ta'limda barqaror hamkorlik muhiti, bilim almashinuvi va ijodiy tashabbuslarning uzluksiz rivoji ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Dillenbourg P. What do you mean by “collaborative learning”? In: P. Dillenbourg (Ed.), Collaborative-learning: Cognitive and Computational Approaches. Oxford: Elsevier, 1999. -p. 9.
2. Roschelle J., Teasley S. D. The construction of shared knowledge in collaborative problem solving. In: C. O'Malley (Ed.), Computer-Supported Collaborative Learning. Berlin: Springer, 1995. -p. 69.
3. Иншаков О. В. Коллаборация как глобальная форма организации экономики знаний // Экономика региона. 2013. № 3(35). С. 38–45. 8.
4. Кузюра А. В. Понятие “экономики знаний”, ее основные черты и условия формирования // Вестник науки. 2022. № 10(55). С. 95–99.